



## **YOSH AVLODGA INGLIZ TILINI O'RGATISHDA MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI**

Raximova Nigora Atakulovna

O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti

Xorijiy tillar va gumanitar fanlar fakulteti o'qituvchisi



### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqola orqali bugungi kunda xalqaro til maqomiga ega bo'lgan ingliz tilini o'rgatishda madaniyatlararo muloqot masalalariga e'tibor qaratilgan. Ma'lumki, madaniyatlararo muloqot - bu turli madaniyatlar va ijtimoiy guruqlar o'rtasida ma'lumot almashishga qaratilgan muloqot shakli hisoblanadi. Shuningdek, maqolada til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy jihatdan tahlil qilishga yondoshilgan.

**Kalit so'zlar:** til, muloqot, madaniyat, urf-odat, millatlararo, madaniyatlararo munosabatlar, kommunikatsiya, intelektual salohiyat, kreativ yondashuv.

### **THE ROLE AND IMPORTANCE OF INTERCULTURAL COMMUNICATION IN TEACHING ENGLISH TO THE YOUNGER GENERATION**

### **ABSTRACT**

This article focuses on intercultural communication in the teaching of English, which today has international language status. It is well known that intercultural communication is a form of communication aimed at exchanging information between different cultures and social groups. The article also focuses on a scientific analysis of the relationship between language and culture.

**Keywords:** language, communication, culture, customs, intercultural relations, communication, intellectual potential, creative approach.

Zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bir vaqtda, chet el fuqarolari bilan iqtisodiy, madaniy, fan va ta'llim yo'nalishlarida hamkorlik munosabatlarini o'rnatishga

## **Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences**

Hosted online from Toronto, Canada.

**Date:** 5<sup>th</sup> February, 2023

ISSN: 2835-5326

**Website:** econferenceseries.com



bo'lgan ehtiyoj tobora ortmoqda. Bu esa o'z navbatida xalqaro miqyosida chet tilini o'rganishga bo'lgan talabni ortishiga, jamoalar kundan -kunga ko'p tilli va ko'p madaniyatli bo'lib borishiga va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakillanishiga sabab bo'lmoqda. Har qanday ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar o'rganayotgan tilining madaniyati va xalqlarining urf-odatlari haqida ma'lumotga ega bo'lsalargina muloqotga kirishganda to'siq va tushinmovchiliklarga duch kelishmaydi. Ahamiyatlisi, o'zga til vakillari bilan munosabat o'rnatishdan avval madaniyatlararo aloqa bo'shlqlari natijasida yuzaga keladigan munosabatlarning buzilishining oldini olish uchun mavjud bo'lgan madaniy farqlarni to'liq tushunish juda muhimdir. Biz har doim bilishimiz kerakki, har qanday guruhning me'yorlari, e'tiqodi, amaliyoti va tili statik emas, balki dinamikdir. Lingvistik jihatdan nazar soladigan bo'sak, madaniyat chet tilini o'qitish va o'rganishda muhim o'rinni egallaydi.

Ma'lumki, til madaniyatning asosiy vositasi sifatida ishlataladi. Chet tillarni o'rganish va o'qitishda madaniyatlararo muloqot nima ekanligini tushunish uchun, birinchi navbatda, madaniyatning sof tushunchasini hisobga olish kerak. Shuningdek, chet tillarini o'rganish va o'qitishda madaniyatlararo muloqotning asosiy omili sifatida tilning ma'nosini haqida ma'lumot olishni talab qiladi. Ko'pincha talabalarga til qoidalari o'rgatiladi, lekin ular yetarli darajada muloqot qila olmaydilar, chunki ular maqsadli madaniyat haqida yetarli ma'lumotga ega emaslar. Bu masalani inobatga olgan holda, talabalarning boshidanoq o'rganilayotgan til madaniyati haqida ma'lumotga ega bo'lishi juda muhim hisoblanadi.

Ta'lim tizimi isloh etishda xalqaro aloqalarning rivojlanishini hisobga olishi kerak, shu bilan birga o'rgatilayotgan mamlakat til normalari, ularning urf –odatlari va an'analari haqida talabalarda bilim va ko'nikmalar shakillantirishimiz darkor.

Dunyo hamjamiyatida xalqaro til maqomiga ega bo'lgan ingliz tili, butun dunyo hayotining intellektual, iqtisodiy, tijorat va madaniy jihatlarda foydalanuvchilari yuqori darajadagi tillar sirasiga kiradi. Bu tilni o'rganish millatlararo madaniyat munosabatlarni o'rnatishda, xalqaro turizm salohiyatini oshirishda, ommaviy axborot vositalari orqali ma'lumot yetkazishda va nihoyat ta'lim tizimini rivojlantirishda juda muhim hisoblanadi. Ta'lim sharoitida, mintaqaviy va global miqyosida samarali muloqot qilish istagi bo'lgan o'qituvchi va talabalar, birinchi navbatda, suhabatdoshining tili va madaniyatini yetarli darajada o'rganishi lozim.



Madaniyatlararo muloqot - bu turli madaniyatlar va ijtimoiy guruhlar o'rtasida ma'lumot almashishga qaratilgan muloqot shakli. Ushbu muloqot turli diniy, ijtimoiy, etnik va ta'lif oluvchi shaxslardan tashkil topgan tashkilot yoki ijtimoiy kontekstda tabiiy ravishda paydo bo'ladigan muloqot jarayonlari va muammolarining keng doirasini tasvirlash uchun ishlataladi. Madaniyatlararo muloqot ba'zan madaniyatlararo aloqa bilan sinonim sifatida ishlataladi. Bu atama o'ziga xos muammolarni, boshqaruv texnikasini va turli madaniyatli odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga bag'ishlangan akademik tadqiqotlarni tasvirlash uchun ishlatalgan. Madaniyatlararo muloqotning turli jihatlari mavjud, masalan, lingvistik tafovutlar, turlicha stereotiplar, ijtimoiy rollar va e'tiqod tizimlari tushunmovchilik va nizolarga olib keladi va shu tariqa hal qilishni osonlashtirish maqsadida ko'rib chiqiladi.

Madaniyatlararo muloqotga xos bo'lgan umumiyy muammolar ta'lif, turizm, biznes va diplomatiya kabi ko'plab insoniy faoliyatlarda mavjud. Madaniyatlararo muloqot muammolarini hal qilish fanlararo xarakterga ega va ular ishtiroy etadigan madaniy omillarni yahshi tushunishni talab qiladi.

Madaniy kompetentsiya, ya'ni, boshqa mamlakatning konvensiyalari, urf odatlari, e'tiqodlari va ma'nov tizimlarini bilish, shubhasiz, chet tillarini o'rganishning ajralmas qismi va ko'plab o'qituvchilar o'zlarining ta'lif dasturlariga o'z maqsadlari sifatida madaniyat ta'limini chet el tiliga kiritishni maqsad qilib qo'yishgan. Til va madaniyat o'rtasida bog'liqlik mavjud.

Oliy ma'lumotli talabalarga imkon qadar o'z salohiyatini rivojlantirishga yordam berish va ularni hayotining ta'lif davrida muammolar bilan ishlashga, o'zgarishga va o'zgarishlarga dosh berishga tayyorlash, o'quvchilarni o'z o'quv faoliyatini rejalashtirishga, boshqarishga va o'yashga o'rgatish darkor. O'quvchilarning ijodkorlikdagi o'rni va ularning tajribalarini tushunish, ijodkorlik jarayoni bilan o'zaro bog'liq bo'lgan faoliyat, tajriba va munosabatlar majmuasini o'z ichiga olishi mumkin:

- a) oldindan o'yash va nima qilishni rejalashtirish-vazifalarni tahlil qilish, maqsadlarni aniqlash, erishish strategiyasini yaratish;
- b) rejalashtirilgan niyatlarga muvofiq ishlarni bajarish;
- c) o'rganish uchun nima qilingan va nimaga erishilganligi haqida mulohaza yuritish (aks ettirish, ko'rib chiqish va baholash; tajribani his qilish);



- d) o'z-o'zini kuzatish va yozib olish- fikrlar, g'oyalar, tajribalar, harakatlar va ularning ta'sirini tahlil qilish, tajriba o'tkazish;
- e) tadbirlarda qatnashish (shaxsiy intelikni shakillantirish);
- f) doimiy muloqot qilish (kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish). Xalqaro tilni o'rganish jarayoni ikki yo'nalishda amalga oshiriladi:
- 1) boshqa madaniyat materiallarini tahlil qilish va talqin qilish;
  - 2) har ikki hodisaning o'xshashliklari va turlarini solishtirish orqali o'z madaniyatini aks ettirish. Bu ikki tomonlama harakat juda muhim ahamiyatga ega, chunki madaniy xilma-xillikka barqaror yondashish bilan madaniy nutq asosidagi tadqiqotlar rivojlanib boradi.

Madaniyatlararo muloqot qobiliyatini o'quvchining turli madaniyatlarni idrok etish, tahlil qilish va ularni o'z ona tili va millatiga bog'lash qobiliyati deb ta'riflash mumkin. Zamонавиъ одам qanchalik globallashgan dunyoda yashashidan qatiy nazar baribir, hozir odamlar birinchi navbatda o'z oilasini, mintaqasini, millatini, mamlakatini, yoki madaniyatga aloqadorlik axborot xabarlarini bilishi darkor deb hisoblayman. O'zining madaniy ildizlari to'g'risida doimiy xabardor bo'lmasdan, odam boshqa millatning madaniyatini tushuna olmaydi.

## REFERENCES

1. International Encyclopedia of Linguistics. — N.Y.: Oxford University Press, 1992.
2. Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры.
3. Сепир Э. Избранные труды по языкоznанию и культурологии.
4. Маслова В.А. Введение в лингвокультурологию.
5. Воробьев В. В. Лингвокультурология (теория и методы).
6. Khasanova G. K. THE SUCCESS AND EDUCATION SYSTEM OF SOUTH KOREA AND JAPAN //Наука сегодня: проблемы и пути решения [Текст]: материа. – 2021. – С. 94.
7. Kh, Khasanova G., and Kenjaboev Sh Kh. "The role of education system in human capital development." Восточно-европейский научный журнал 2-1 (66) (2021): 48-51.



**Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences**  
Hosted online from Toronto, Canada.  
**Date:** 5<sup>th</sup> February, 2023  
**ISSN:** 2835-5326

**Website:** econferenceseries.com

8. Хашимова С. On some features of teaching foreign language for students of non-philological areas at the initial stage. – 2019. – Евразийское Научное Объединение. – С. 334-338.
9. Хашимова С. НЕКОТОРЫЕ ГРАММАТИЧЕСКИЕ И СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УДВОЕНИЯ В ЯПОНСКОМ ЯЗЫКЕ. - Страны. Языки. Культура. – С. 334-338.
10. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10.
11. Nasirova, S. A. (2020). CONCEPTS OF 中国 梦想 "CHINESE DREAM" AND 类 命运 共同 " COMMUNITY OF THE ONE FATE OF HUMANITY"-A LINGUISTIC AREA. *Journal of Central Asian Social Studies*, 1(01), 05-14.
12. Abdullaevna, N. S. (2020). Lexical-semantic and cognitive specifics of political discourse (based on Si Jinping's speeches). *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1086-1092.
13. Nasirova, S. A., Hashimova, S. A., & Rikhsieva, G. S. (2021). THE INFLUENCE OF THE POLITICAL SYSTEM OF CHINA ON THE FORMATION OF SOCIAL AND POLITICAL TERMINOLOGY. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 10-17.